

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida
336H(575.1)*

Haydarov Humoyun Begmurod o‘g‘li

Mavzu: Milliy valyuta kursi barqarorligini ta‘minlash yo‘llari

70410402 — “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar: PhD., SH.Hamdammov


Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Moliya” kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

15 - sonli bayonnoma « 25 » aprel 2023-yil.

Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.
(i.sh.f.)


imzo sana


Ilmiy rahbar:

Hamdamov.SH.R.
(i.sh.f.)


imzo sana

Talaba:

Haydarov.X.B.
(i.sh.f.)


imzo sana

Dissertatsiya Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “ 22 ” may

№ MBF-01/10 raqami bilan ro'yxatga olindi

ANNOTATSIYA

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan qadrini oshirish har doim dolzarb mavzu bo'lib kelgan.

Shundan kelib chiqib milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda valyuta siyosatini oqilona olib borish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, hamda amaliy takliflar berish tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhini tayyorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida Markaziy Bank, Davlat Statistika Qo'mitasi va boshqa xorijiy saytlardan olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy va ekonometrik tahlillar o'tkazdik. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlar miqyosida xususan Indoneziya, Xitoy, Singapur, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarning valyuta kursini barqarorlashtirishdagi tajribalarini o'rganib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida valyuta kursi barqarorligini ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *Valyuta, valyuta siyosati, valyuta kursi, devalvatsiya, inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi, davlat qarzi, tashqi savdo, import tovarlar, eksport tovarlar, Markaziy Bank.*

ABSTRACT

Ensuring the stability of the national currency and increasing its value compared to other foreign currencies has always been a topical issue. Based on this, the main goal of the research is to develop scientifically based recommendations and make practical suggestions for the rational conduct of currency policy in ensuring the stability of the national currency exchange rate. Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic. In order to increase the practical value of the scientific work, we conducted comparative and econometric analyzes based on the data obtained from the Central Bank, the State Statistics Committee and other foreign sites. In addition, we studied the experiences of foreign countries such as Indonesia, China, Singapore, Japan, and the United Arab Emirates in stabilizing the exchange rate. Based on the studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, suggestions and recommendations for ensuring the stability of the exchange rate.

Key words: *Currency, foreign exchange policy, exchange rate, devaluation, inflation, refinancing rate, public debt, foreign trade, import goods, export goods, Central Bank.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
I BOB. KIRISH.....	10
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	12
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	13
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1.Kirish.....	15
2.2.Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	18
2.3 Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
2.4 Xulosa.....	30
III BOB. METODOLOGIYA.....	31
3.1. Tadqiqot dizayni.....	31
3.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	31
3.3 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	31
3.4 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	32
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	32
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	33
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	35
4.1. Valyuta barqarorligiga ta’sir o‘tkazuvchi omillar.....	35
4.2. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari valyutalari tahlili.....	43
4.3.Valyuta barqarorligiga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	49

4.4. Foreks valyuta bozorlarida eng ko‘p sotiladigan valyutalar tahlili	50
V BOB. XULOSA.....	55
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	54
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	55
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61

I BOB. KIRISH

Har qanday mamlakatda valyuta muomalasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun imtiyoz hamda preferensiyalarning kam samarali tizimini asossiz ravishda shakllantirishga yo'l ochadi. Biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlar vujudga kelishi esa raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirish, umuman, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylanadi. Bunday holat respublikamiz uchun ham yot emas edi.

Lekin hozirgi kunda valyuta siyosati hamda tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni alohida e'tirof etish joiz.

Aytish kerakki, davlatimiz rahbarining (Farmon-2017) "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bunda dasturilamal bo'lib xizmat qilyapti.

Avvalo, mazkur hujjat valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy etish, respublika eksport salohiyatini yuksaltirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida qabul qilinganini ta'kidlash o'rinlidir.

Farmon kuchga kirgach, uning tub mohiyatiga tushunib yetmagan odamlar orasida "Endi hamma narsa qimmat bo'larkan", "AQSh dollarining kursi oshadimi?", "Yana almashtirish shoxobchalarida navbatlar ko'payadi", "Qora bozor yo'q bo'ladimi, bundan oddiy aholi zarar ko'rmaydimi?", "Milliy valyutamizning taqdiri nima bo'ladi?" — degan turli mish-mishlar taxminlar tug'ildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 23-martdagi ma'ruzasida quyidagilarni bayon qildilar: "Markaziy bankka tashqi valyuta bozoridagi noaniq vaziyatni inobatga olgan holda, ichki valyuta bozori barqarorligi va almashuv kursi moslashuvchanligini ta'minlashda ehtiyotkorona yondashuvni qo'llab borish muhimligi ko'rsatib o'tildi. Bunda ichki valyuta bozoridagi holatni